

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi



Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi




Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti



Taraqqiyot strategiyasi markazi

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



17-aprel kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida “O'zbekiston – 2030” strategiyasiga bag'ishlab o'tkazilayotgan

“O'ZBEKISTON – 2030 STRATEGIYASI: INSON SALOHIYATINI RO'YOBGA CHIQARISH IMKONIYATLARI” mavzusida RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Toshkent – 2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**“O'ZBEKISTON – 2030 STRATEGIYASI: INSON SALOHIYATINI
RO'YOBGA CHIQARISH IMKONIYATLARI”**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

TO'PLAMI

17 Aprel 2024 yil

Toshkent – 2024

Taqrizchilar:

Shirinov Djaxongir Djabbarovich – Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo‘mita raisi

Jo’raqulov Furqat Noryigitovich – DXX Akademiyasi professori, siyosiy fanlar doktori, DSc,

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi: inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami – T.: Toшkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2024. – 778 b.

Ushbu to‘plamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-sон Farmoni ijrosini ta‘minlash yuzasidan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024 yil 18-yanvardagi 16-son “2024-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g’risida”gi buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida 2024 yil 17 aprel kuni “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi: inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Konferentsiya materiallari to‘plamiga Yangi O‘zbekistonni barpo etish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta‘minlash maqsadida yurtimizda olib borilayothgan islohotlar va ularning natijalarini yoritish, ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etish va ilmiy asoslashning dolzarb masalalari sohalariga oid ilmiy maqolalar kiritilgan.

Mas’ul muharrir

T.Z.Teshabayev – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d., prof.

Tahrir hay’ati a’zolari: s.f.d. DSc S.S.Otamuratov, t.f.d., prof. N.X.Oblomuradov, s.f.d., DSc T.Norboyev, t.f.d., DSc, prof. O.R.Rashidov, f.f.n., dots.M.N.Primov, f.f.f.d. PhD T.R.Safarova, t.f.f.d. PhD I.B.Baxodirov, dots. A.Sultanova, dots.v.b.N.T.Parpiyeva, o’q.T.T.Aliyev

Matnlarda foydalanilgan manbalar va malumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir.

O‘ZBEKISTONDA DINIY BAG‘RIKENGLIK VA INSONIYLIK FAZILATI

U. M. Abilov

Toshkent tibbiyat akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrasi professor

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekistonda diniy bag‘ri kenglik va insoniylik fazilati hamda millatlararo muomala madaniyatini shakllantirish, yosh avlodga yo‘naltirilgan tarbiya borasidagi taklif va mulohazalar haqida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: milliy, etnik, millatlararo, elatlar, urf-odatlar, etiket, oila, milliy omil, milliy o‘ziga xoslik, “milliy jarayon, optimistik.

Har bir shaxs doimo, turli xil ijtimoiy, shu jumladan milliy-etnik guruhlarning ham kayfiyatini, o‘zligini yakka tartibda aks ettiruvchisi hamdir. Zero, milliylikdan yiroq bo‘lgan insonning o‘zi bo‘lmaydi. Shaxsning millati, uning dunyoqarashiga o‘ziga xos rang beradi. Bu esa shaxsning optimistik va pessimistik qarashlari, qadriyatlari va ustuvor yo‘nalishi inson shaxsi namoyon bo‘lishining asosiy shakllaridan biridir.

Rus faylasufi N.Berdyaev “...inson jamiyat qatoriga rus, fransuz, nemis yoki ingliz sifatidagi alohida olingen odam, sifatida emas, balki o‘zining milliyligi bilan kiradi. Ruslar, fransuzlar, inglizlar, nemislar va butun dunyo xalqlarini birlashishga chaqirish mumkin, lekin yer yuzidan milliy guruhlar, milliy ruhiy shakllar va madaniyatlar yo‘qolib ketishini hohlash mumkin emas.... Madaniyat hech qachon alohida olingen insonga tegishli bo‘lmaydi, u doimo muayyan insoniy guruhga tegishli, ya’ni milliy xalqchil bo‘ladi va shu jihatni bilan umuminsoniy darajaga ko‘tarilishi mumkin”, deb ta’kidlagan edi.

Insонning jamiyatdagi o‘rnii va tabiiy ravishda faqat o‘ziga xos milliyligi, etnoruhiy va irqiy belgilarning ifodalaniши bilan cheklanib qolmaydi. Bunda shaxs ijtimoiy borliqning boshqa jihatlarini ham inkor etmasligi lozim. Ayni paytda, ilmiy adabiyotda ham inson shaxsida aks etadigan o‘ziga xos milliylik va milliy jihatlar o‘rnini haddan ziyod ko‘klarga ko‘tarish kabi holatlar ham kuzatiladi. Bu esa tabiiy ravishda boshqa odamlarning milliy qadr-qimmatini kamsitishiga olib keladi.

Mazkur masalada mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq, respublikamizda istiqomat qilayotgan xalqlarning milliy kechinmalari, shu jumladan, ruhiyatiga ham O‘zbekiston rahbariyati alohida e’tibor bilan yondashdi. Ayni paytda ular ham o‘zlariga bo‘lgan e’tiborni his etishlari, o‘z xalqlari vakillari sifatida namoyon

bo‘lishlari uchun shart-sharoit mavjudligi, millatlararo ijobjiy muhit yaratilishiga amaliy harakatni turli xil millatlarning milliy-madaniy markazlari faoliyati orqali e’tirof etmoqdalar.

Shunisi quvonarlikni, turli xil millatlar va elatlar, respublikamizda esa o‘zbek millati vakillari umuminsoniy g‘oyalar va qadriyatlarga o‘tishni milliy o‘zlikning kamsitilishi, deb tushunmaydilar.

Umuminsoniy qadriyatlar ahamiyatining oshib borishi insonning milliy va ko‘pmillatli muhitdagi mavqeini sezilarli darajada o‘zgartiradi. Shuning uchun ham bugungi kunda uning uchun milliy va millatlararo manfaatlarni o‘zaro bog‘lashning maqbul yo‘nalishlari va variantlari belgilab olindi, respublikamizdagi yangilanish jarayonlarining kelajakdagi oqibatlarini hisobga olgan holda o‘zining amaliy faoliyati chegaralarini tartibga solish borasida davlat miqyosidagi dasturlar asosida faoliyat olib borilmoqda.

Milliy va millatlararo, umuminsoniy qadriyatlar ko‘pmillatli jamiyatda shaxs borlig‘ining bir-biridan ajralgan ikkita alohida shakli sifatida namoyon bo‘lishi mumkin emas. Ular yagona jarayonning uzviy ikkita jihatni sifatida o‘zaro bir-biriga bog‘liqdir. Shu bilan birga shuni alohida ta’kidlash lozimki, shaxsning ma’naviy dunyosida milliy va millatlararo qadriyatlar namoyon bo‘lishiga ko‘ra bir-biriga teng emasdir. Matbuotda odatda, etnik jihatdan bir-biriga yaqin va bir-biridan uzoq joylashgan millat va elatlar bir qatorga qo‘yiladi. Bunda ular o‘rtasida til va madaniy birlik, umumiylar tarixiy o‘tmishning mavjudligi yoki mavjud emasligi inkor qilinadi, turli xil millat va elatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yaqin o‘tmishdagi darajasi hisobga olinmaydi. Ushbu hollarda, umuminsoniy qadriyatlar bilan boyib borish jarayonini “anglab olish” juda murakkabdir. Lekin bu manfaatlar integratsiya qilinishidan qo‘rqish yoki ushbu holatni shubha ostiga olinishini keltirib chiqarishi mumkin. Muloqotdagi ustuvorliklarning xilma-xil “darajalari” turli xil yakuniy natijaga olib keladi. Shuning uchun ham bir xil millatlarning dunyoqarashida umuminsoniy jihatlar, qadriyatlar, shakllar ko‘proq, boshqalarinikida esa kamroq aks etadi. Ushbu holatga alohida urg‘u berilib, absolyutlashtirilsa, milliylikning millatlararo qadriyatlardan uzoqlashib ketishi, birinchisi ikkinchisiga qarama-qarshi qo‘yilishi ham kuzatiladi. Millatlararo qadriyatlarning o‘rni haddan ziyod oshirib ko‘rsatilishi o‘tmishda milliylik ahamiyatining pasaytirilishiga olib kelgan (uni himoya qilishga bo‘lgan har qanday intilish ko‘pchilik uchun millatchilikda ayblanish bilan yakunlangan edi. Fitrat, Cho‘lpon va boshqa ko‘plab qatag‘on qurbonlarining taqdiri buning misolidir).

Milliy o‘zlikning siquvgaga olinishi pessimizni oziqlantirib turuvchi ijtimoiy yo‘qotishlarga olib kelgan va olib kelayotgan bo‘lsa-da, ayni paytda, millatlaro, umuminsoniy qadriyatlarning inkor etilishi bundan-da yomon oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Milliy asosdagi janjallar - bu turli xil millat vakillarining birgalikda yashagan uzoq tarixi davomida to‘plangan qadriyatlarni mensimaslikning oqibatidir. Shuning uchun ham, millatlararo munosabatlarda vujudga kelayotgan optimizm va pessimizmning turli o‘ziga xos jihatlarini aniqlash maqsadida, muayyan shaxsning real ijtimoiy aloqalarini bugungi kun nuqtai-nazaridan o‘rganish, bunda ushbu shaxs o‘zini mansub deb hisoblayotgan millat tomonidan bosib o‘tilgan tarixiy rivojlanish yo‘lini hisobga olishni taqozo etadi.

Misol uchun, urush davrda tug‘ilgan va shaxs sifatida shakllangan o‘zbeklarning yosh avlodida urushdan keyingi yosh avlodiga xos bo‘lgan ko‘pchilik jihatlar mayjuddir. O‘z-o‘zidan ravshanki, shaxs shakllanayotgan va rivojlanayotgan milliy muhit muhim ijtimoiy asoslarga egadir. Lekin, bu bilan milliy omillarning ijtimoiy mohiyatini o‘zining barcha ko‘rinishlari bilan va barcha millatlar uchun bir xil deb bo‘lmaydi. Hatto joylashishi, madaniyati, diniga ko‘ra bir-biriga yaqin bo‘lgan, birgalikda hayot kechirishning ko‘p asrlik asoslariga ega bo‘lgan o‘zbek va tojik xalqlarida ham kundalik turmush tarzi va urf-odatlarida, dam olish shakllarida, ruhiy o‘ziga xosliklarida va albatta, tilida farqlar mavjud. Bu jihatlar hisobga olinmas ekan, milliy o‘ziga xosliylik ham o‘z-o‘zidan yo‘qola boradi.

Milliy muhit o‘ziga ijtimoiy taraqqiyot, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy omillarining har qanday tarixiy davri uchun umumiyligi bo‘lgan ustqurmaviy asoslarini xos tarzda o‘zida aks ettiradi. Masalan, bugungi kunda, O‘zbekiston MDH davlatlari orasida o‘zining ijtimoiy barqarorligi bilan ajralib turishi umum tomonidan tan olingan. Barcha omillarida ushbu barqarorlikning saqlanishida o‘zbek millatining xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek millatiga mansub shaxslar chuqur mulohaza yuritadigan insonning obro‘-e’tibori, qadr-qimmatini hurmat qilish kabi xislatlarga egadir.

Aksariyat hollarda dunyoqarashning ildizlari milliy muhit omili bilan belgilanadi. Ushbu muhit xalqning ijtimoiy xususiyatida mustahkamlangan bo‘lib, o‘zining barcha tarkibiy qismlari (ish faoliyatining an’anaviy shakllari, turmush tarzining xususiyati, dam olish shakli, muomala tamoyillari) bilan insonlarning ongi, xatti-harakati, qadriyatlar tizimiga katta ta’sir ko‘rsatadi va shu tarzda shaxsning millat vakili sifatidagi shaxsiyatini amalda namoyon etadi. Demak, bu muayyan milliy birlik turmush tarzining o‘ziga xos muayyan tarixiy shaklida namoyon

bo‘layotgan ob’ektiv va sub’ektiv omillar insonning hayot tajribasida amalga oshirilayotgan “ijtimoiy makondir”.

“Milliy omil”, “milliy o‘ziga xoslik”, “milliy jarayonlar” va umuman “milliylik” tushunchalari doimo rivojlanishda bo‘lib, muntazam ravishda boshqa millatlarning, millatlararo va umuminsoniy mazmun bilan boyib boradi. Umuminsoniy, millatlararo qadriyatlarni milliy qadriyatga aylanishi mexanizmi, bu ularning oddiy bir mexanik qo‘silib ketishi emasdir. Bu doimo o‘zida o‘z milliyligidan kelib chiqib, anglab yetilgan, o‘zga millat qadriyatining yangilanib borish jarayonidir. Ya’ni, bu “o‘z” va “o‘zga” qadriyatlarning ijodiy omuxta bo‘lishidir. Ushbu jarayon taraqqiyotni belgilaydi, milliy ruhiyat va barcha jamiyat ongiga yangi xususiyatlarni beradi.

Turmush tarzining turli xil bo‘g‘inlarida milliy muhit tarkibiy qismlari asosan umumiylar tarixiy taqdir bilan belgilanadigan moddiy va ma’naviy madaniyat, ijtimoiy tajriba, urf-odatlar, etiket, oila va kundalik turmushdagi an’analar, geografik va ob-havo shart-sharoitlari (bir nechta millat uchun umumiylar bo‘lishi mumkin bo‘lgan yashash makoni), dunyoqarashning o‘ziga xosligi, ya’ni muayyan xalq: o‘zbeklar, ruslar, tojiklar, gruzinlar va h.k. milliy o‘zligining saqlanib qolishini belgilovchi turmush tarzining qariyb butun majmuasidan iboratdir.

Millatlararo qadriyatlardan tarkibiy qismlarga ajralgan barqaror xo‘jalik, madaniy, ilmiy aloqalar, millatlararo aloqa tili, milliy mafkura elementlari, xalqlar do‘stligi sifatida talqin qilinadigan sub’ektiv moyillik, umumiylar ruhiyat ko‘rinishlarini kiritish mumkin. Ko‘pmillatli muhit yanada ko‘p qirralidir. Chunki u o‘zida milliy va millatlararo, o‘ziga xos va chetdan qabul qilingan, saqlanib qoltingan va o‘zgadan olingan qadriyatlarni o‘z ichiga olgan umuminsoniy qadriyatlardan jamlamasidir.

O‘tmishi, buguni yo‘q bo‘lgan va kelajakka intilmagan, milliylik bilan bog‘lanmagan millatlararo, ya’ni umuminsoniy qadriyatlardan bo‘lmaydi. Millatlararo totuvlik jarayoni, agarda uni sub’ektiv suiste’mollikdan xoli bo‘lgan jarayon sifatida tushunilsa, u yoki bu millat vakilining milliy xususiyatlari, xarakteri, qiziqishlari, odati va ustuvorliklari bir xillashtirib yuborilishini anglatmaydi.

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, milliy xususiyatlardan rivojlanib borishi bilan bir vaqtda ro‘y berayotgan hayot tarzining barcha sohalaridagi integratsiya tamoyillari millatlararo munosabatlardan ustuvorlikka egadir. Lekin ushbu holatda milliy uyg‘onish, mustaqillik, o‘ziga xoslik jarayonlari o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Bu esa fuqarolik, etnik birlik, til jihatdan umumiylilik masalalarini juda dolzarb qilib qo‘yadi. Aslida millatlararo xususiyatlardan ijtimoiy munosabatlardan, jamiyatdagi odamlarning ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarini (iqtisodiyotda, siyosatda,

ilm-fanda, maishiy turmushda) yaqqolroq namoyish etadi. Lekin bunda insonlar hayotiga xatti-harakat, fikrlash tarzi, uslubi va shaklini bixillashtirish zo‘rlik bilan singdirilgan, shaxsga sig‘inish va turg‘unlik yillarining salbiy ta’sirini yengib o‘tish kerak. Chunki ular loqaydlik, ikkiyuzamachilik, jamiyatda optimistik kayfiyatlarning yo‘qolishiga olib kelar edi. Shuning uchun ham O‘zbekistonda milliy munosabatlarda ijtimoiy siyosat yuritish usullarini tanlashda har qanday millatga mansub inson shaxsida umuminsoniy, milliy va individual betakror xususiyatlar borligi e’tiborga olindi.

MDHning ayrim davlatlarida milliy munosabatlarning hozirgi holati jahon rasmiy doiralari, keng xalq ommasini asosli ravishda tashvishlantirmoqda. Bu esa bir tomonidan oshkora millatlararo ziddiyatlar bo‘limgan barcha mustaqil respublikalardagi ruhiy kayfiyatga ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinci tomonidan, umuminsoniy qadriyatlar namoyon bo‘ladigan o‘ziga xos milliylik yoki etnopsixologik xususiyatlarning hisobga olinishini taqozo etadi. Bular jumlasiga, masalan, ijtimoiy optimizm, doimo ijtimoiy o‘zgaruvchan faoliyat sub’ekti bo‘lgan shaxsning faolligi kabilar kiradi.

Bunday faoliyatni optimallashtirish shuni taqozo etadiki, har bir inson milliy mahdudlikdan xoli bo‘lsin, ruhiy taraqqiyot va ijtimoiy farovonlikning keng istiqbollariga ega bo‘lsin, millatlararo aloqalarda nafaqat salbiy jihatlarni, balki hamma odamlarni birlashtiruvchi umumijtimoiy manfaatlarni ko‘ra bilsin. Aynan shular o‘ziga xos milliylikning nafaqat ruhiy dunyoda, shaxsning yo‘nalishlarida, hayot tarzining o‘ziga xosligida mustahkamlanishini taqozo etadi, umuminsoniy, millatlararo xususiyatlarning ham bo‘lishi lozimligini ko‘rsatadi. Zero, milliy suveren davlatchilikning mustahkamlanishini ko‘p millatli tashqi dunyodan uzilish, deb tushunish kerak emas. Aksincha, har bir shaxsning umuminsoniy qadriyatlari bilan boyishi, odamlar ongida milliy dunyoqarashni siqib chiqarmaydi, balki ularni bir necha bor kuchaytiradi va insonni hamda millatni dunyo madaniyatiga yaqinlashtiradi. Ammo bu jarayonga milliylik, xalqchillik niqobi ostida shaxsiy manfaatlari uchun kurashayotgan kuchlar to‘sqinlik qilishi mumkin.

Albatta, millatlararo do‘slikni yuzaki tushunuvchilar ham bor. Masalan, og‘izda xalqlar do‘sligini ulug‘lab, bu “do‘slik” uchun biron-bir millatni (juhudlar, turklar, armanlar, ruslar va sh.k.) tanlaydilar. Tabiiyki, bunday yondoshuv millatlararo uyg‘unlikka, demak, milliy taraqqiyot, millatlararo totuvlikda optimistik tendensiyalarning mustahkamlanishiga xalal beradi.

Millatchilikning bugungi qiyofasi o‘zgacha. Masalan, kosmopolit-millatchilar paydo bo‘lishdi. Bir-birini inkor etuvchi bu tushunchalarning mohiyati shundan

iboratki, og'izda ular milliylikni umuman rad etadilar. Lekin buning uchun boshqa millatlar ularning millatini qabul qilishi kerak. Vatanparvarlik, milliylik, milliy mustaqillik taraqqiyot yo'lidagi g'ov sifatida inkor etiladi. Biroq, bu inkorlar "o'zga" millatlarga tatbiq etiladi.

Bu esa, millatlararo muomala madaniyatini shakllantirish, yosh avlodga yo'naltirilgan tarbiya borasidagi ishlarni yanada kuchaytirishni taqozo etadi. Vaholanki, aynan yoshlarda muayyan maqsadga yo'naltirilgan, qat'iy me'yorlangan tarzda milliy, millatlararo va umumiy qadriyatlarni o'zlashtirish tuyg'usi kuchli. Zero, ular birgalikdagina millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishga, respublikamizdagи optimistik shart-sharoitini mustahkamlashga qodir. Bunday tarbiyaviy ishlar shaxs sifatida shakllanishida yoshlarning tub manfaatlariga mos, turmushlarini optimistik tarzda yo'naltiradigan, turli millatlarga mansub odamlarning qadriyatlari va xatti-harakatlaridan o'rnak olishga qaratilgan.

Ayni paytda jahonda bir millat nomi bilan ataluvchi, lekin turfa xil millat, elat, xalq va etnik guruuhlar vakillaridan iborat aholiga ega bo'lgan davlatlar juda ko'plab topiladi. Shular jumlasiga aholisi, 130 dan oshiq millat vakillaridan tashkil topgan O'zbekiston ham kiradi. Tabiiyki, ko'p millatli davlatning ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, madaniy turmush tarzi, taraqqiyotida ham o'ziga xoslik mavjud.

Turli xil millat - qadriyatlар va madaniyat, millat va ma'naviyat - bular uyg'un tushunchalardir. Ma'naviyatsiz va qadriyatsiz millat bo'lmaydi. Buni har bir kishi his qilishi lozim. Eng muhimi, bu borada O'zbekiston fuqarolarida to'la imkoniyatlar bor.

Hozirgi kunda Respublika milliy-madaniy markaz atrofida 138 ta - arman, yahudiy, tatar, tojik, koreys, ozarbayjon, boshqird, turkman, nemis, ukrain, turk, grek, bolgar kabi milliy-madaniy markazlar faoliyati muvofiqlashtirilgan. Ular mustaqillikning dastlabki davri, 1992 yil 13 yanvarda tashkil etilgan Respublika Baynalmilal madaniyat markazi bilan hamkorlikda ish olib boradilar va o'z Nizomlari, dasturlari hamda ish rejalariga egadirlar. Markaz faoliyati xalq urf-odatlari va an'analari, marosimlarini tiklash, ularni O'zbekistonda yashovchi xalqlar o'rtasida targ'ib etishga qaratilgan.

Shuningdek, bu markazlarda o'zbek xalqi madaniyati, san'ati, tili ham targ'ib etiladiki, bu xalqlarni yaqinlashtirishga, millatlararo munosabatlarni yaxshilashga xizmat qiladi. Respublika Baynalmilal markaz qoshida tashkil etilgan millatlararo "Navro'z" teatri ham bunga yordam beradi. Uning sahnasi turli teatr mакtablari va yo'naliшhlarini obrazli ko'rsatish imkonini beradi, millatlararo munosabatlar madaniyati, siyosiy madaniyatni yuksaltirishga yordam beradi. Bu esa jamiyatda

barcha millat vakillari o‘rtasidagi ijtimoiy optimizm darajasini va O‘zbekiston kelajagiga bo‘lgan har bir fuqaroning ishonchini yanada oshiradi.

Bu borada barcha millatlarda, ayniqsa, tub bo‘lмаган millat vakillarida, ularning millatidan, dinidan qat’i nazar, yoshlarda vatanparvarlik hissini kuchaytiruvchi tarbiya usullaridan foydalanish foydali. Masalan, ko‘p millatli ish muassasalarida Vatanimiz tarixi, urf-odatlari, an’analari, imkoniyatlari va kelajagini aks ettiruvchi hamda tarannum etuvchi tadbirlarni o‘tkazish ijobiy samara berishi tabiiy. Eng asosiysi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan va amaldagi mavjud haq-huquqlar: har bir millat kishisi o‘zi qilayotgan mehnatining samarasi, baxtli kelajagiga ishonch, oilasida hukm surayotgan xotirjamlik, bo‘sh vaqtini turmush tashvishlaridan xoli o‘tkazish, ma’naviy va madaniy ehtiyojlarini to‘liq qondirish imkoniyatlarining mavjudligi Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbatni yanada oshiradi. Bu yoshlar ongida milliy ma’naviyatga bo‘lgan yangicha yondashishni, hurmat-e’tiborni tarbiyalashda o‘ta muhimdir.

REFERENCES

1. Abilov O‘.M. “O‘zbekiston taraqqiyotining optimistik ruhi” Toshkent. 2003.
2. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. Toshkent “Ma’naviyat” nashriyoti. 2019.
3. Abilov O‘.M. Optimistik evolyutsiya: tafakkur, ma’naviyat, mafkura. Toshkent. “Fan ziyosi” 2023 yil.
4. «Insoniyat, millat va til: o‘zaro aloqadorlik va rivojlanish tendensiyalari» Ilmiy-nazariy seminar materiallari to‘plami. Toshkent, 2024 yil.

MUNDARIJA | CONTENTS

- 97.** Abilov, U. M. (2024). O'ZBEKISTONDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA INSONIYLIK FAZILATI. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 438-444.
- 98.** Karimov, B. (2024). O'ZBEKISTONDA ZAMON TALABIGA JAVOB BERADIGANMUTAXASSIS KADRLARNI TAYYORLASH – TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLARNING BOSH MEZONI. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 445-448.
- 99.** Abdulkhanova, G. S. (2024). PATRIOTIC UPBRINGING OF THE YOUNG GENERATION IN UZBEKISTAN IS THE DIRECTION OF THE TIME. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 449-452.
- 100.** Abdullaev, A. A. (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH MASALALARI. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 453-456.
- 101.** Abdullaeva, Z. N. (2024). JAMIYAT BARQARORLIGIDA ISHONCHNING QADRIYAT SIFATIDA YUKSAK BAHOLANISHI: YOSHLAR TARBIYASIDAGI AXLOQIY MEZONLAR. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 457-461.
- 102.** Xolbekov, A. (2024). INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH - TA'LIM TIZIMINI RAQAMLI AVLODGA MOSLASHTIRISH MASALALARI. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 462-464.
- 103.** Vaxobov, U. B. (2024). YANGI O'ZBEKİSTON YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASIGA AXBOROT OQIMINING TA'SIRI. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 465-468.
- 104.** Abduraxmanov, S. Z. (2024). TAMAKI MAHSULOTLARINING BIOLOGIK VA SHAXSIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 469-473.
- 105.** Samatova, S. N. (2024). YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YO'NALISHLARDAGI ISLOHOTLAR. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 474-478.
- 106.** O'rinceva, Z. A. (2024). YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI VA SPORT YO'NALISHLARDAGI ISLOHOTLAR. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 479-482.
- 107.** Azimova, S. S., & Tilavayeva, S. Y. (2024). YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI VA SPORT YO'NALISHLARIDAGI ISLOHOTLAR. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 483-485.
- 108.** Azizova, M. A. (2024). GLOBALLASHUV JARAYONLARI VA SOG'LOM TURMUSH TARZI. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 486-490.
- 109.** Zayniddinova, V. (2024). OLIY TA'LIM TIZIMINI 2030 YILGACHA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI - SOG'LOM RAQOBAT MUHITINI YARATISH MEZONIDIR. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 491-494.
- 5-SHO'BA. MA'NAVIY TARAQQIYOTNI TA'MINLASH VA MADANIYAT SOHASINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH BO'YICHA ISLOHOTLAR.**
- 110.** Muxtarov, A. (2024). "YANGI O'ZBEKİSTON – 2030" DA MA'NAVIY TARAQQIYOT VA MADANIYAT SOHASINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH BO,YICHA ISLOHOTLAR. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 495-502.